



SOTSIOLEKTNING IJTIMOYIY XUSUSIYATLARI

Qudratova Sayyora Ziyadulla qizi

O'ZMU 2-kurs magistranti

sayyoraqudratova18@gmail.com

Anotatsiya: Tezisning maqsadi sotsiolingvistika fanining bo'limi hisoblanuvchi sotsiolektning kelib chiqishi va ijtimoiy xususiyatlarini keng qamrovli yoritish.

Tayanch so'zlar: sotsiolingvistika, jamiyat, sotsiolekt, argo, jargon, sleng, yashirin til, taraqqiyot.

"Sleng", "jargon" va "argo" atamalarining boshlang'ich ma'nolarini aniqlash uchun ularning dastlabki manbalariga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz. "Jargon" va "argo" atamasi fransuz tilidan, "sleng" esa ingliz tili orqali tilshunoslikka kirib kelgan. Roberining kichik lug'atda argo atamasi umum qo'llaniladigan atama sifatida "jinoiy muhit tili", lingvistik atama sifatida esa "ma'lum ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan texnikaga oid bo'lmagan leksika" sifatida berilgan. Argoning etimologik kelib chiqishi — "corporation des jeux" - "qora niyatli kishlar jamoasi" sifatida izohlangan. Larus kutubxonasidagi lug'at tuzuvchilarning fikricha, argo (jargon emas) "ma'lum bir ijtimoiy va kasbiy guruh odamlarining boshqa ijtimoiy birliklarga nisbatan ajralib turish maqsadida ishlatiladigan so'z va iboralarning yig'indisi" dir. "Argo haqida 20 mashg'ulot" kitobining muallifi hisoblanmish fransuz tilshunosi Lui-Jan Kalve ushbu ifodaga kengroq ma'no ifodalaydi. Jamiyatda tekinxo'rlik, boshqalar hisobiga yashashlik, maishiy buzuvchilik yo'lga o'tib olgan ma'naviy buzuvchilik guruhlar tomonidan qo'llaniladigan maxsus so'zlar argo deyiladi. Masalan, loy, yakan (pul), bedana (to'pponcha), pero (pichoq), dar (go'zal) va h.k. Bunday g'ayritabiiy so'zlar, nutq sofligi va tozaligini pasaytiradi. O.S.Axmanovanning lug'atida argo jargon bilan bir narsa ekanligini, faqat u jargonga nisbatan «peyorativlik va kamsitish ohangidan holi» deb beriladi. Shunga qaramasdan ko'p tadqiqotchilar argoni jamiyatning quyi qatlamiga tegishli nutqiy vosita sifatida izohlanadi.

M.M.Kopilenkoning aytishicha: "14-15 yoshdan 24-25 yoshgacha bo'lgan rus tilida so'zlashuvchilarning katta qismi o'z tengdoshlari bilan muloqatda bir necha yuz maxsus so'z va idiomatik birikmalarni ishlatishadi va bu yoshlar jargoni deb ataladi.

Dalning lug'atida berilishicha, "jargon" so'zi fransuz tiliidan o'zlashgan atama sifatida qabul qilingan va tarjimada "nutq", "so'zlashuv", "talaffuz", "mahalliy nutq" tarzida tarjima qilingan. Ushbu izohda jargonning kodlangan tildan farqiga urg'u beriladi va atamaning ma'nosida betakkalluflik ohangi yo'q. Brokgauz va Efronlar bu tushunchaga yaqinlik kiritadi: "buzilgan nutq", shuningdek jargonlar ba'zan ma'lum maqsadlar uchun, masalan, o'g'rilar jargon, kambag'allar va hakazolar uchun o'ylab chiqiladi. Ma'lum maqsad deganda so'z guruhining ajratilishi ko'zda tutiladi va u umumiy madaniy fondan mahrum.

XIX asrda vujudga kelgan kasbiy jargonlar, ya'ni ijtimoiy hamda yoshga doir jargonlarni o'rganish an'analari hozirgi paytda yangi yo'nalishlarga ega bo'lmoqda. Agar



kasbiy jargon va umumiy leksika o'rtasidagi chegarani aniqlash qiyinchilik tug'dirmasa, yoshga doir jargonning chegaralarini aniqlash muammo tug'diradi. Ba'zi tilshunolar jargonning tizimga ega ekanligi va umumiy inkor etib, uni qandaydir ijtimoiy guruhning "mahsus tili" sifatida tassavvur qilishadi.

Jargonning foydalanuvchilar uchun faqat eng muhim vaziyatlarda qo'llanilishi haqida ham fikrlar mavjud. Bunday izohda jargon "u yoki bu muayyan tilda gaplashuvchilar guruhining nutqiy repertuarini kengaytiruvchi so'zlar to'plami bo'lib, bunda jargon strukturaviy aspektlarga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat o'sha guruh uchun eng muhim bo'lga vaziyatni tasvirlashda va faqat leksik qatlamda ishlatiladi". Ba'zi tadqiqotchilar jargonni tilning ancha murakkab subtizimi sifatida qararkan, unda leksik birliklar semantikasining ajratilganligini va foydalanuvchilar guruhining cheklanganligi bilan farqlanishini ta'kidlaydilar.

Tadqiqotchilarning fikricha, argo va jargon o'rtasidagi chegarani aniqlash juda muhimdir va bu chegara yashirinlik darajasi bilan belgilanadi. Argo bu yashirin til bo'lib, u bilan yopiq guruh a'zolari, jamiyatning quyi tabaqa vakillari foydalanishsa jargon bu ajratilmagan guruh atributi bo'lib muayyan yoshga yoki kasbga oid guruhlarining ijtimoiy dialektidir. Jargon – bu ma'lum bir jamiyat guruhining tili hisoblanadi. Bu guruhlar o'zlarining alohida yashash usullariga ega, shu sababli ular o'zlarining boshqalardan ajratadigan kodlangan muloqot shakllariga ega. Bu muloqot usuli ularni boshqalarning nazoratidan himoya qiladi. Bu kabi kodlangan tillar jinoiy guruhlar, yoshlar, harbiylar, talabalar tomonidan ishlatilishi mumkin.

Hozirgi zamon tilshunosligida yoshlar tiliga jargon sifatida katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa italiyan tilshunosligida yoshlar tili alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda yoshlar tili haqida buyuk tilshunos olim, italiyan va nemis tillari mutahassisi Edgar Radtkening fikrlarini ham qo'shib o'tishni lozim topdik. Bu olim yoshlar tili borasida juda noyob ma'lumotlarni ta'kidlab o'tgan. Bunga ko'ra olim yoshlar tilini semantik va grammatik jihatdan adabiy tilga yaqin deb hisoblasada, lekin uning umri qisqaligi, o'ta o'zgaruvchanligini nazarda tutib, uni til qatlami sifatida e'tirof etadi. Yoshlar tilining aynan tilshunoslikda o'rganilishi Italiyada ancha kech boshlandi deydi olim, bunga sabab qilib esa taraqqiyotning kech boshlanganligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda yoshlar tili, umuman jargonlarni sotsiolingvistika o'rganadi. Til qatlamlariga kiruvchi jargon, argo, slenglar esa aynan shu jamiyat qatlamlarining tili hisoblanadi.

Sleng deganda biz odatda og'zaki nutq turlaridan birini tushunamiz. U jamiyat tomonidan norasmiy ("maishiy", "betakalluf", "ishonchli") nutq shakli sifatida baholanadi. Sleng o'z navbatida argo va jargonga xos birliklarni hamda ularning ma'nolarini metaforik jihatdan o'zgartirib va kengaytirib o'zlashtirishi mumkin. Bu yerda nutqning ekspressiv, so'z o'yini va zamonaviy neologizmlarga boy sun'iy shakllantirilgan turi haqida gap bormoqda.

Sleng – bir-biriga o'xshamas, kuchli muloqot vositasi. Doimiy tilimiz o'ta formal bo'lib, sleng ifodalaydigan ma'nolarni ifodalamaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov F.X. Britaniya va Amerika slangining sotsiolingvistik xususiyatlari - 2006.
2. Дюбуа Ж., Эделин Ф., Клинкаенберг Ж. Общая риторика. – М:Прогресс, 1986. – 391 с.
3. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М.: Учпедгиз, 1957. – С.60.
4. Edgar Radtke- Sociolinguistica –Heidelberg, 1983. 23-27 p.
5. Morris C.W. Writtings on the General Theory of Sings.-The Hague Mouton,1971.-280 p.
6. Ройзензон Л.И. Русская фразеология- Самарканд: СамГУ,1977. –С.86-87.